

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI DIKTANT TURLARI VA METODIKASI BILAN TANISHTIRISH

Kakabayeva Gurbanjemal

NDPI Boshlang'ich ta'lim fakultetining 1-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15421173>

Annotatsiya: Asosan boshlang'ich sinflarga diktant yoki yozma ish yozdirish juda qiyin masalalardan biri hisoblanadi. Shu sababli ham ularga diktant yozdirishda yozuvga ham imlo qoidalariga, grammatik xatolarga yol qoymaslikni o'rgatish haqida. Boshlang'ich sinf o'quvchilarga diktant turlari va diktant metodikasi bilan tanishtirish haqida ushbu maqolada so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: diktant, diktant turlari, tekshirish, tahlil qilish, baholash, ahamiyati.

Diktant (lot.dicto - aytib turib yozdiraman) - o'quvchilarga imlo va tinish belgilariga doir qoidalarini o'rgatishda hamda bu qoidalar yuzasidan hosil qilingan bilimni tekshirishda qo'llaniladigan yozma ish. Diktant asosan o'quvchilar bilimni tekshirishga xizmat qilib, katta talimiy ahamiyatga ega chunki bunda o'quvchilar mavjud bilim va ko'nikmalarni ishga soladilar.

Asosan o'quvchilar bilimni shakllantirishda rivojlantirishda diktantning o'rnini juda katta hisoblanadi. Sababi bunda ular eshtib yozish orqali o'quvchilar o'zlarining mustaqil bilimlarni yuzaga chiqaradilar. Diktantning ahamiyati juda katta chunki ular o'z eshitgan narsasini o'zlari mustaqil yoza olishlari juda katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Ular yozish bilan bir qatorda asosan eslab qolishlari ham mumkin. Esab qolish orqali tushunib va e'tibor berib yozishadilar. Diktat yozdirishda asosan ular eshitgan narsasini uzning ongida shakllantirib keyin yozma ravishda yuzaga chiqaradilar. Bu bolsa ularning bilimni yanada chuqurlashtiradi.

Diktant yozishga tayyorgarlik ko'rish o'quvchilarida ma'lum psixologik holatni yuzaga keltiradi ular o'zlarida bu ishga kirishish ruhi yati paydo qilib daftar sahifasiga doskadan sana va matn sarlavhasini ko'chirib yozadilar. So'ngra diqqat e'tibor bilan matnni tinglaydilar va yozadilar, yozishdan oldin o'quvchilarni ruhlantirish lozim.Kim chiroyli xatosiz yozadi deb. O'quvchilarga diktant yozdirishda har birga e'tibor berishi kerak. Ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilariga chunki ular qoidalarini va matn so'zlarni qanday qilib yozishni yoki bog'inga to'g'ri bo'lishni bilmaydilar. Diktant yozdirishdan maqsad ularning bilimlarni tekshirish va tahlil qilishdan iboratdir. Bolalar har yozishga kirishishda ko'tarinki ruhda bo'lishlarni ta'minlash uchun ulardagi ruhiy holatini hamisha hisobga olib ish yuritish lozim.

Dikdan turlari juda ko'p bo'lib ular turlicha hisoblanadi.Ular quyidagilardan iborat.

1. Lug'at diktanti
2. Saylanma diktant
3. Ko'rsatuv diktandi
4. Yoddan yozuv diktanti
5. Ta'kidiy diktant
6. Izohli diktant
7. Ijodiy diktant
8. Erkin diktant.

Har bir diktant turining o'zining katta ahamiyati bor.

O'quvchilarga diktantni yozilgandan keyin uni tekshirish, baholash orqali o'quvchilar bilimini aniqlanadi va baholanadi. Bu jarayonda har bir xatoga e'tibor berishi kerak. Masalan harflarning to'g'ri yozilishiga, chiroyli va xatosiz bo'lishga bu jarayon ta'lim va tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Chunki o'quvchilar diktant yozgandan keyin yo'l qo'ygan kamchiliklariga va o'lgan baholarni bilishga juda ham qiziqadilar. O'qituvchilar har bir xato yozgan o'quvchining ustida ishlashi kerak, qyo'l qo'ygan xatolarni qaytadan to'g'irlab o'rgatish kerakdir. O'qituvchilar o'z o'quvchilarining xato va kamchiliklarini aytish orqali ularga tushuntirish berishi lozim. Xato ishlagan yoki yozgan narsasini o'rgatish hamda to'g'ri yozishga undashi orqali ularni ruhlantirish hamda rivojlantirish kerak.

O'quvchilarga diktant yozdirilgandan keyin o'qituvchilar tomonidan tekshiriladi. Tekshirish jarayonida har bir o'quvchining xatolarini tekshirib baholab tahlil qilish lozim. Har bir o'quvchining yozgan diktanti yig'ib olib tekshiriladi. Asosan tekshirish quyidagilar asosida amalga oshiriladi.

Tekshirish lozim bo'lgan BKM elementlari nomi va soni:

1. Katta boshqarb bilan yoziladigan so'zlarni aniqlash
2. Xat boshidan yozish
3. Atoqli otlarni aniqlab olish va ularning imlosi
4. Ko'plik qo'shimchalarni to'g'ri yozish
5. Ketma - ketlik bilan kelgan bir xil undoshlarni yozish
6. Chiroyli yozuv.

Diktant o'quvchilarning yozma nutqini oshirishda katta ahamiyatga ega. Diktant uchun matn tanlash muhim hisoblanadi. Dastlab kichik matnlar tanlanadi. Diktant uchun talanadigan matnlar mazmun jihatdan asta-sekin murakkablashtirilib boriladi. Asosan diktantdan birinchi va ikkinchi sinflarda to'rt besh gapli qisqa matn bo'ladi. 3-4 - sinflarda bo'lsa murakkablashtirib boriladi.

Xulosa o'rnida shuni aytishim joizki, diktant yozdirish orqali o'quvchilarning yozma nutqi shakllanadi va mustaqil ishlash qobiliyati oshadi. Asosan boshlang'ich sinf o'quvchilarga diktant yozdirish juda murakkab hisoblanadi. Bu jarayonda ular biroz qiyinchiliklarga uchraydi. O'quvchilar tomonidan diktant to'g'ri tushuntirilib yozdirilish va o'rgatilishi ularga ko'mak bo'ladi. Ularga diktant yozdirishda asosan matnni to'g'ri tanlab olish lozim. Diktant asosan o'quvchilarning yozma madaniyatini shakllantiradi va rivojlantiradi. Diktant yozishtirishdan maqsad asosan o'quvchilarning yozma qobiliyati va eshitib eslab qolish qobiliyati oshishiga sabab bo'ladi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. G'ulomov, M. Qodirov, M. Ernazarova, A.Bobamuradova, N.Alavutdinova , V. Karimjonova " Ona tili o'qitish metodikasi" Toshkent - 2012.
2. A. Mirzayev " Diktant metodikasi " Toshkent - 1979.
3. Q. Abdullayeva, S. Rahmanbekova. " Diktantlar to'plami " Toshkent - 2011.
4. Arxiv.uz